

BOSHLANG'ICH SINF TEKNOLOGIYA DARSLARIDA ESTETIK HIS-TUYG'U TARBIYASI

A.N. Ziyayev

Qo'qon DPI BTM kafedrasi dotsenti.

Yoqubova Muxlisaxon

BTM ta'lif yo'naliishi 04/22 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik his-tuyg'ularni shakllantirish tizimida boshlang'ich ta'limgagi texnologiya darslari imkoniyatlarini yoritish hamda bu borada samaradorlikka erishish yo'llari tasiya etilgan va ularning mohiyati bayon qilingan.

Boshlang'ich ta'lif har tomonlama yetuk barkamol shaxsni kamol topishida rivojlantiruvchi axamiyatga egadir. Ta'lif jarayonini ta'lif mazmunining insoniy va insonparvarlik g'oyalari asosida tashkil etilishi shaxsga yo'nalgan ta'lif mohiyatini yanada boyitadi. Zero, bu xususiyatlar o'z navbatida boshlang'ich sinflarda olib boriladigan texnologiya ta'limi jarayoniga ham taalluqli hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarga ijtimoiy foydali mehnat haqida bilim, dastlabki ko'nikmalar berish barobarida tarbiyaviy vazifalar ham amalga oshiriladi.

Ushbu tadqiqot ishimizda boshlang'ich snf o'quvchilarida estetik his-tuyg'ularni shakllantirish tizimida boshlang'ich ta'lif texnologiya darslari imkoniyatlarini yoritish hamda bu borada samaradorlikka erishish yo'llarini tasiya etishdan iborat.

Estetik his-tuyg'u shaxsnинг vogelikka, tabiat va jamiyat hayotidagi ishtiroki, faoliyati jarayonida uning bilimi, ehtiyoji kabilardan kelib chiquvchi munosabati deb qarash mumkin. Shaxs kamolatida estetik, xususan, estetik his-tuyg'u tarbiyasi alohida ahamiyatga ega, chunki shaxs olam go'zalliklarini anglamasdan, u haqida chuqur mulohaza, fikr yuritmasdan faoliyatga go'zallik baxsh eta olmaydi.

Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda katta avlodning texnologiya tajribalarini yosh avlodga o'rgatishda estetik yondashuv ularda texnologiya, kasblar haqida tushuncha, bilim, ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga shaxsiy faoliyatda ijodiy yondashish, faoliyatning ijtimoiy mohiyatini istiqlol g'oyalari asosida tushunish, mehnat natijalari va mehnat ahlini qadrlash, yaratuvchanlik kabi sifatlarga ega bo'lish bilan birga o'zini ham har tomonlama rivojlantirib boradi. Boshlang'ich ta'lif jarayonida o'quvchilarda estetik his-tuyg'ularni shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, estetik ehtiyoj, estetik qiziqishni yuzaga keltirishga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. O'z navbatida estetik munosabat texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash, faoliyk ko'rsatishiga olib keladi. Estetik munosabatlar

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

ob'ekt,sub'ekt munosabatlarini o'z ichiga oladi. Aar sub'ekt estetik munosabatlarga kirishmasa ob'ekt qancha go'zal bo'lmasin unda estetik his-tuyg'u bo'lmaydi. Demak, texnologiya ta'limi jarayonida estetik munosabat alohida ahamiyatlidir.

Estetik his-tuyg'ular shakllanish jarayoni uning kayfiyatiga,borliqni qanday anglashiga,fikrlash layoqati va qobiliyatiga, ta'lim tarbiya asosida olgan bilimi,dunyoqarashlari kabilarga ta'sir ko'rsatadi. Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda bilim ko'nikmalar estetik his-tuyg'ular asosida bo'lishi o'quvchida o'z texnologiya faoliyatini to'g'ri anglash,texnologiya layoqat va qibiliyatlarini o'sishi imkoniyatlari ko'payadi va iqtidorli o'quvchilar soni ortadi.

Ta'lim faoliyati inson ruhiyati qonuniyatlarini va uning ijtimoiy rivojida ko'rindi. Ta'lim alohida tashkil topgan faoliyat sifatida biologik,psixologik,ijtimoiy qonuniyatlar asosida shakllangan inson rivojinitezlashtiradi. O'quvchi ta'lim jarayonida atrof borliqni chuqurroq his qiladi,anglaydi. Ushbu xususiyatlar texnologiya ta'limiga ham taalluqlidir. Har qanday bilim bilish jarayonini yuzaga keltiradi.

Bilish esa hissiy bilishdan boshlanadi. Zero,texnologiya ta'limi mazmunini, ya'ni o'quv materiallarini to'liq yetkazilishida dastlabki hissiy munosabatlar estetik asosda bo'lishi o'quvchilar bilish faoliyatini faollashtiradi. Xulosa sifatida ta'lim,texnologiya ta'limi samaradorligi o'quvchilarda go'zallikni his qilishni shakllantirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarda estetik his tuyg'ularni shakllantirishda boshlang'ich ta'lim texnologiya darslari imkoniyatlarini orttirish o'qituvchi mahoratiga ko'p jihattan bog'liq,shuning uchun quydagi tavsiyalarni berish o'rinnlidir:

1. Har bir o'qituvchi estetik bilimlardan xabardor bo'lishi va darslar jarayonida estetik his-tuyg'ularni o'quvchilar ongiga singdirish maqsadini qo'ya bilishi;
2. Dars jarayonida o'quvchilarning estetik his-tuyg'ularini uyg'otuvchi sharoitni pedagogik jihatdan tashkil eta olishi;
3. Texnologiya darslaridagi texnologiya qurollari va vositalari hamda materiallar bilan ishlashda, o'z o'ziga xizmatni yo'lga qo'yishda qo'yiladigan gigienik talablar ham o'quvchilarda nafosatlilikni shakllanishiga yo'naltirilishi;
4. O'qitishning texnik hamda tabiiy,tasviriy namoyishlari,o'quv ustaxonasi jihozlanishi, u yerda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar go'zallikni his ettiruvchi bo'lishi;
5. Texnologiya darslari ta'lim tamoyillari asosida tashkil etilishi va olib borilishi;
6. Mashg'ulotlarda ta'limning zamonaviy metodlaridan samarali foydalanishi;
7. O'qitishning ko'rgazmali metodlarini o'rinci qo'llash kabilar.

Yangi O'zbekistonni yanada har tomonlama taraqqiy etish vazifalarini ro'yobga chiqarish yosh avlodning zamonaviy ta'lim asosida

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

bilim, ko'nikma, malakalar bilan qorollanishiga, xususan texnologiya ta'lmini ham zamonaviy asosda tashkil etilishiga hamda ular estetik faoliyatlarini shakllantirilishiga har jihattan bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Ziyaev "Estetik his tuyg'u tarbiyasi" "Fan va texnologiya" Toshkent 2013
2. Ziyaev, Adxam Nisolmuxammatovich. "PEDAGOGICHESKIE ASPEKTY ISPOLZOVANIYa MYSLEY MYSLITELEY V ESTETICHESKOM VOSPITANII UChAЩIXSYa." E Conference Zone. 2023.
3. Ziyayev, A. N. "THE MAIN AREAS OF ACTIVITY OF THE CLASS LEADER IN THE EDUCATION OF THE NECESSARY SKILLS FOR AN INDEPENDENT LIFE IN STUDENTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 953-956.
4. Ziyayev, A. N. "SOME ISSUES OF THE FORMATION OF SKILLS OF A HEALTHY LIFESTYLE IN STUDENTS IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 851-853.
5. Ziyaev, Adxam Nisolmuxammatovich. "ROLЬ NACIONALНЫХ SENNOSTEY V VOSPITANII GRAJDANINA." Uchenyyi XXI veka (2017): 78